O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI QIZILTEPA TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Qiziltepa tumani, O‘zbekiston shoh ko'chasi 43-uy

2023 - yil 17 - aprel 93-5-72-Q/23 Qiziltepa tumani hokimligi

Qiziltepa tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga svetoforlarni o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qiziltepa tumanida mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq svetoforlar o‘rnatilsin.

2. Tuman “Yo‘llardan foydalanish” UK (J.Majidov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Jumayev)ga tumanda mavjud avtomobil yo‘llariga ilovaga muvofiq svetaforlarni o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart ekanligi belgilab qo‘yilsin.

4. Tuman IIB YHXG (D.Yo‘ldoshev)ga mazkur svetaforlar o‘rnatilishini hamda tuman hududida transport vositalari harakatini tartibga solinishini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Yangi Qiziltepa” gazetasida va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari H.Aliyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **U.Fayziyev**

Qiziltepa tuman hokimining
2023 yil 17 apreldagi
93-5-72-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tumanda mavjud avtobil yo‘llarga o‘rnatiladigan svetofor bo‘yicha

MA’LUMOT

T/r	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Soni
1	O‘zbekiston shoh ko‘chasi (O‘zbekiston MFY)	4R64(b) “M-37 avtoyo‘lidan shahobcha Qiziltepa t.y.st” a/y. ning 3 km.i chorahasida	16
2	O‘zbekiston shoh ko‘chasi (O‘zbekiston MFY)	4R64(b) “M-37 avtoyo‘lidan shahobcha Qiziltepa t.y.st” a/y. ning 4 km.i chorahasida	16
3	O‘zbekiston shoh ko‘chasi (O‘zbekiston MFY)	4R64(b) “M-37 avtoyo‘lidan shahobcha Qiziltepa t.y.st” a/y. ning 5.5 km.i chorahasida	8
4	Tinchlik ko‘chasi (Yashnaobod MFY)	4R63 “Kogon.sh-Kuymozor suv ombori-Qiziltepa.sh-Toshrabot.q-Arabsaroy.q-Yangiqo‘rg‘on.q” a/y. ning 49 km. chorahasida	16
5	Qal’aiy- Azizon MFY	4R63 “Kogon.sh-Kuymozor suv ombori-Qiziltepa.sh-Toshrabot.q-Arabsaroy.q-Yangiqo‘rg‘on.q” a/y. ning 68 km. chorahasida	12
6	Vang‘ozi MFY	4R65 “4R63 avtoyo‘li(49km) Azizobod.q-Kogon.sh” a/y.ning 5.9 km. chorahasida	16
7	Oq machit MFY	4R65 “4R63 avtoyo‘li(49km) Azizobod.q-Kogon.sh” a/y.ning 8.9 km. chorahasida	12
8	Azizobod MFY	4R65 “4R63 avtoyo‘li(49km) Azizobod.q-Kogon.sh” a/y.ning 13.5 km. chorahasida	16
9	Bo‘ston MFY	4R183 “Malik temir yo‘l stansiyasi-Bo‘ston.q” a/y.ning 43.5 km. chorahasida	8